



BOSHLANG'ICH SINFLARDA PUNKTUATSION MASHQLARNI BAJARISH USULLARI

Alikulova Fazilat Abdusattor qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarda tinish belgilarini rivojlantirish muammosining holati va ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shartlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tinish belgilar, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining punktuatsiya savodxonligini shakllantirish, nuqtalar ilmi, savod o'rgatish.

KIRISH

Puntuatsiya so'zi grekcha bo'lib "Nuqtalar ilmi" degan ma'noni anglatadi. Ma'lumki, punktuatsiya tinish belgilarini ishlatilishi haqidagi qoidalar yig'indisi. «Puntuatsiya ham yozuv kabi, kishilar orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri sanaladi». Boshlang'ich sinflarda to'rta tinish belgi: gap oxirida nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi hamda uyushiq bo'lakli gaplarda vergulning ishlatilishi haqidagi qoidalar o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflarda o'rgatiladigan tinish belgilari kam bo'lishiga qaramay, o'qituvchi har bir sinfda punktuatsiya ustida muntazam ish olib borishi zarur, chunki tinish belgilari fikrni aniq va tez oqib olishga hamda boshqalarga uqtirishga yordam beradi».

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni tinish belgilari bilan tanishtirishda o'qituvchi, avvalo, ularning yozma nutq to'g'ri, boshqalarga tushunarli qilib ifodalash uchun muhim ekanini tushuntiradi. Masalan, nuqtaning roli bilan elementar tarzda tanishtirish uchun gaplarga ajratilmagan yaxlit matn o'qitiladi; o'quvchilar bunday matnni o'qish va mazmuniga tushunish qiyin ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Puntuatsiya semantik,



sintaktik va intonatsion qoidaga asoslanadi. Bu uch asos bir-biriga o‘zaro ta’sir etadi. Xat yozuvchi tinish belgisini qo‘yishda, avvalo, bayon etadigai fikrining mazmuniga asoslanadi.

ASOSIY QISM

Punktuatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish uchun punktuatsiya ta'rifini to'g'ri tushunish kerak. Ularning yordami bilan bolalar tinish belgilarining mohiyatini ko'ra boshlaydilar. Ular nafaqat tinish belgilari, balki turli sintaktik tuzilmalarga xizmat qiluvchi butun qoidalar guruhlarini mohiyatini ham to'g'ri tushunadilar. Ular tinish belgilari va ular o'rtasidagi farqni ko'ra boshlaydilar.

Tinish belgilarining tilshunoslikning bir qismi sifatida paydo bo'lishi yozma muloqotga bo'lgan ehtiyojning rivojlanishi bilan bog'liq edi. Qadim zamonlarda ham Yevropalik yozuvchilar alohida tinish belgilarini qo'yishgan. Masalan, ular nuqta va ikki nuqtadan foydalanganlar. Ularning yozuvlarida nuqtali vergul va bitta vergulni uchratish ham kam uchraydi. Bu belgilarning barchasi ajratuvchi sifatida ishlatilgan [7].

O'quvchilarga tinish belgilarining asoslarini o'rgatish birinchi sinfdan boshlanadi. Bolalar tinish belgilarining qoidalarini o'rganadilar. Boshlang'ich maktabda bolalar nuqta, vergul, so'roq, undov kabi belgilar bilan tanishadilar. Shu bilan birga, vergul faqat sodda gaplarda qo'llaniladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tinish belgilari bilan tanishganda, o'qituvchi ularning roli va maqsadini ko'rsatishga harakat qiladi. Shu bilan birga, siz bolalarning e'tiborini yozayotganda jumla ichiga tinish belgilarini to'g'ri qo'yish qanchalik muhimligiga qaratishingiz kerak. Matnni ovoz chiqarib o'qiyotganda ularni intonatsiya va boshqa ifoda vositalari bilan ajratib ko'rsatish ham muhim va to'g'ridir [4].

O'quvchilar tinish belgilarining qoidalari bilan imkon qadar erta tanishishlari kerak, chunki bu bolalarda belgi ortidagi gapning ma'nosini payqash qobiliyatini rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shuningdek, siz uni intonatsiya yordamida to'g'ri takrorlashingiz, bolalarni his-tuyg'ularini va fikrlarini to'g'ri ifodalash uchun yozma asarlarni yaratishda tinish belgilaridan foydalanishga o'rgatishingiz kerak [3]. Tinish



belgilarini ko'rsatish qobiliyatini rivojlantirish savodxonlik davridan boshlanadigan juda uzoq jarayondir.

1- sinf o'quvchilariga savod o'rgatish davridayoq nuqta, so'roq belgisi va undov belgisi bilan amaliy tanishtiriladi. Bolalar hali "Alifbe" o'qimasalar ham, rasmga qarab gap tuzadilar. O'qituvchi ularga talaffuzda bir gap boshqasidan to'xtam (pauza) bilan ajratilishini, gapning oxirida pasayishini tushuntiradi.

Bolalar, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, 3-5 gapli kichik matnli gaplarga ajratadilar va ular o'rtasidagi to'xtam (pauza) qilish hikoya mazmunini yaxshi tushunishga yordam berishiga ishonch hosil qiladilar. Ular gapni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgana boshlaydilar. Bu gap oxiriga nuqta qo'yilishi bilan tanishtirish uchun mazmuniy va intonatsion asos yaratadi. Bolalarni gapni o'qishga oldindan tayyorlash uchun grafik sxemadan foydalaniladi. Masalan, bolalar gap tuzadilar, undagi so'zlarni sanaydilar va o'qituvchi rahbarligida chiziqcha bilan belgilaydilar: Biz ertakni sevamiz ().

Yana boshqa gap tuzib, uni ham chiziqcha bilan belgilaydilar: Qovun pishdi ().

O'qituvchi quyidagi mazmunda tushuntiradi: Og'zaki nutqda bir gapni ikkinchisidan pauza bilan ajratamiz (Har bir gapni talaffuz qilib ko'rsatadi). Kitoblarda, gazetalarda gapning tugaganini, ovozni pasaytirish va pauza qilish kerakligini ko'rsatish uchun alohida belgi-nuqta ishlatiladi.

Bir necha darsdan so'ng o'quvchilar gaplarni o'qishni boshlaydilar. Ular nuqta pasaytirish, pauza qilishga belgi ekanini tushunadilar. Kesma harflardan gap tuzishda, albatta, nuqtali kartochkadan foydalaniladi. O'quvchilar gapni yozganda, o'qituvchi nuqta qoyishni eslatadi, ishni tekshiradi. Gapning oxiriga nuqta qo'yilmasa, xato hisoblanadi. O'quvchilar o'qituvchi yordamida nima uchun nuqta qoyish lozimligini tushuntiradilar Shunday yo'l bilan gapning oxiriga nuqta qo'yish ko'nikmasi shakllantiriladi.

So'roq va undov belgilari bilan ham savod o'rgatish davrida tanishtiriladi. Bolalar so'rash mazmunini bildirgan gaplarni o'qiydilar. O'quvchilar bunday gaplarni ohangga rioya qilgan holda, ya'ni gapning oxirida ovozni kotarish bilan o'qishga orgatiladi. Gapning mazmuni va ohangi so'roq belgisini qo'yishni talab etadi.



Undov belgisini qo'yishni o'quvchilar gapning his-hayajon ifodalashi va alohida ohangda o'qilishi bilan bog'laydilar. O'quvchilar II sinfda «Gap» bo'limi mavzularini o'rganish jarayonida nuqta, so'roq belgisi va undov belgisi haqida nazariy tushunchalar oladilar.

III sinfda esa tinish belgilari haqidagi nazariy tushunchalar chuqurlashtiriladi. Shu vaqtdan boshlab o'quvchilar gap oxiriga tinish belgilari sintaktik asosda qo'yilishini anglay boshlaydilar. «Darak gap» mavzusini o'rganish bilan bogliq holda nuqta qo'yilishi, «So'roq gap» mavzusi bilan bog'liq holda so'roq belgisi va «Undov gap» mavzusini o'rganish bilan bog'liq holda undov belgisining qo'yilishi o'rgatiladi.

IV sinfda o'quvchilar «Gapning uyushiq bo'laklari» mavzusi o'rganilganda sanash ohangi bilan bog'langan bo'laklarda vergulning vazifasi bilan tanishadilar. O'qituvchi ikki gapni o'qib taqqoslash bilan nuqta va vergulda ohangning qanday berilishini ko'rsatadi. Masalan, biz o'z ona tilimizni sevib o'rganamiz.

XULOSA

O'quvchilarga punktuatsion qoidalarni to'la singdirish, ularni tinish belgilarini oz o'rnida ongli ishlatishga o'rgatish maqsadida sintaktik, punktuatsion tahlil, tinish belgilari tushirib berilgan matnning tegishli tinish belgilarini qo'yish, ta'kidiy eslatish diktanti, bayon va inshoda tinish belgilarining ishlatilishini izohlash kabi mashqlardan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu mashqlar kichik yoshdagi o'quvchilarning tinish belgilarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantiradi, grammatik va tinish belgilarining hushyorligini, nutqini, ifodali o'qishni rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi // O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi, 7-maxsus son. - T.: „Sharq“, 1999.



2. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti / / „Boshi. ta'l". jurnali. — Toshkent, 2005. — № 5. 5, 6, 8—9-betlar.
3. Гвоздев, А.Н. Современный русский литературный язык [Текст] А.Н.Гвоздев. - М.: Либроком, 2015. - С. 472
4. Жедек, П.С. Списывание в обучении правописанию [Текст] /П.С.Жедек, М.И.Тимченко// Начальная школа. –2009. -№8.- С.18
5. Новикова, Л.И. Русский язык: пунктуация [Текст] / Л.И. Новикова, Н.Ю. Соловьева. — М.: ИЦ РИОР, РАП, НИЦ ИНФРА-М, 2013. — 284 с.
6. <https://fayllar.org/1--mavzu-boshlangich-sinflarda-sintaksis-va-punktuatsiya-eleme.html?page=2>